

VII. ISTE'MOL BOZORI


CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistika ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Jumladan, ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidandir.

2023-yil 1-oktabr holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni 5 971 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 21 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 5 950 tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan.

Chakana savdo aylanmasining asosiy ko'rsatkichlari



Chakana savdo aylanmasi – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi, mlrd. so‘m
(2023-yil yanvar-sentabr oylari)

Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2023-yilning yanvar-sentabr oylarida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 14 237,9 mlrd. so‘mni tashkil etib, 2022-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 5,5 % ga o‘sd.

Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 1 002,9 mlrd. so‘mni (o‘shish sur‘ati 106,5 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 13 235,0 mlrd. so‘mni (o‘shish sur‘ati 5,4 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 2 280,7 mlrd. so‘mni (o‘shish sur‘ati 6,3 %) tashkil etdi.

Chakana savdo aylanmasida yirik korxonalar, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining hajmi va o‘shish sur‘atlari


	Jami mlrd. so‘m	2022-yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan, foizda
Andijon viloyati	14 237,9	105,5
Andijon sh.	3 978,6	109,4
Xonobod sh.	159,7	104,1
<i>tumanlar:</i>		
Oltinko‘l	566,2	106,4
Andijon	910,0	102,7
Baliqchi	935,0	104,2
Bo‘ston	213,4	108,3
Buloqboshi	457,0	103,7
Jalaquduq	475,7	110,6
Izboskan	510,0	109,5
Ulug‘nor	199,5	102,4
Qo‘rg‘ontepa	978,8	110,4
Asaka	1 186,6	100,2
Marhamat	655,0	103,3
Shahrixon	1 844,9	101,8
Paxtaobod	658,6	100,4
Xo‘jaobod	509,0	104,5

2023-yilning yanvar-sentabr oylarida 2022-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan viloyatning Andijon shahri (9,4 %), Jalaquduq (10,6 %), Qo‘rg‘ontepa (10,4 %), va Izboskan (9,5 %) tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o‘shish sur‘atlari qayd etildi.


Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra 13 235,0 mlrd. so'mni tashkil etib, 2022-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 5,4 % ga ko'paydi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 93,0 % ni tashkil etdi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)




Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)



Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2022- yilning mos davriga nisbatan 6,5 % ga o'sdi va 1 002,9 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 7,0 % ulushiga to'g'ri keldi.

Chakana savdo aylanmasida yirik korxonalar, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining hududlar kesimida ulushi, foizda



Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Ulug'nor (99,1 %), Qo'rg'ontepa (99,1 %), Shahrixon (98,7 %) va Buloqboshi (98,6 %) tumanlariari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 7,0 % ni tashkil etib, eng katta ulush Andijon shahri (16,6 %), Jalaquduq (7,3 %), Andijon (8,3 %) va Bo'ston (6,8 %) tumanlarida kuzatildi.

Andijon viloyati bo'yicha aholi jon boshiga nisbatan chakana savdo tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'atlari

Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajmi, ming so'm	O'sish sur'ati, foizda
Andijon viloyati	4 250,9	103,3
Andijon shahar	8 414,9	106,9
Xonobod shahar	3 526,1	102,0
<i>tumanlar :</i>		
Oltinko'l	2 976,8	104,2
Andijon	3 223,4	100,4
Baliqchi	4 389,6	102,1
Bo'ston	2 778,9	106,2
Buloqboshi	3 024,6	101,6
Jalaquduq	2 419,9	108,5
Izboskan	2 022,2	107,3
Ulug'nor	3 151,6	100,8
Qo'rg'ontepa	4 300,4	108,5
Asaka	3 387,3	98,0
Marhamat	3 561,7	101,2
Shahrixon	5 767,2	99,5
Paxtaobod	3 198,4	98,2
Xo'jaobod	4 306,3	101,8


2023-yilning yanvar-sentabr oyi holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 4 250,9 ming so'mni (2022-yilning yanvar – sentabr oylariga nisbatan 103,3 %) tashkil etdi.

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Andijon shahri (8 414,9 ming so'm), Shahrixon (5 767,2 ming so'm) va Xo'jaobod (4 306,3 ming so'm) tumanlar hissasiga to'g'ri keldi.


Uyushmagan savdo tovar aylanmasi*

Viloyat bo'yicha 2023-yilning yanvar-sentabr oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi 2 280,7 mlrd. so'mni tashkil etib, 2022-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 106,3 % ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi 978,6 mlrd. so'mni (127,5 %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi 1 302,0 mlrd. so'mni tashkil etdi (105,7 %).

Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi (mlrd. so'm)



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati, (yanvar-sentabr, foizda)



* Xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YTT)ni qo'shmagan holatda

* Jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, chorva (parranda) mollari

**Uyushmagan savdo aylanmasida dehqon va chorva bozorlari savdo
aylanmasi hajmi va o‘shish sur‘atlari**

	Jami, mlrd. so‘m	2022-yil yanvar- sentabr oylariga nisbatan, foizda
Andijon viloyati	2 280,7	106,3
Andijon shahar	514,8	131,0
Xonobod shahar	3,5	34,0
<i>tumanlar :</i>		
Oltinko‘l	38,6	111,1
Andijon	66,3	107,7
Baliqchi	135,7	92,1
Bo‘ston	21,5	146,8
Buloqbooshi	79,3	96,9
Jalaquduq	73,8	163,1
Izboskan	29,6	163,7
Ulug‘nor	76,0	89,6
Qo‘rg‘ontepa	140,6	2,8 m.
Asaka	239,5	103,7
Marhamat	120,4	87,7
Shahrixon	443,4	93,2
Paxtaobod	199,0	81,4
Xo‘jaobod	98,7	84,6

2023-yilning yanvar-sentabr oylarida dehqon va chorva (parranda) bozorlarida, uy xo‘jaligida yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, parrandalar va chorva mollari savdosi bilan shug‘ullanuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini, dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo aylanmasi hajmi dehqon bozorlarida 978,6 mlrd. so‘mni, chorva (parranda) bozorlarida 1 302,0 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

**Uyushmagan savdo tovar aylanmasi:
Dehqon bozori**

2023-yilning yanvar-sentabr oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvini o‘tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko‘ra savdo aylanmasi hajmi 978,6 mlrd. so‘mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm Yangi uzilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari savdosiga (328,3 mlrd. so‘m) to‘g‘ri keldi.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari		Mlrd so‘m
	Yangi uzilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari	328,3
	Non va non mahsulotlari	271,8
	Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar)	116,0
	Tovuq go‘shiti	39,4
	Quritilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari (yongoq, bodom, pista va boshqalar)	34,2
	Sut va sut mahsulotlari (sir, brinza,...)	20,2
	Tuxum	28,4
	Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem-xashak	6,0
	Ziravorlar	37,1
	Tuzlamalar	21,3
	Gullar, o‘simlik va nihol ko‘chatlari (manzarali va qishloq xo‘jaligi)	11,3
	Nooziq-ovqat tovarlari	64,8

**Uyushmagan savdo tovar aylanmasi:
Chorva (parranda) bozorlari, mlrd. so‘m**

2023-yilning yanvar-sentabr oylarida, viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvi o‘tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko‘ra savdo aylanmasi hajmi 1 302,9 mlrd. so‘mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qoramollar savdosi 1 104,2 mlrd. so‘m, qo‘y va echkilar – 178,4 mlrd. so‘mni, otlar – 10,4 mlrd. so‘mni, parrandalar va quyonlar – 9,0 mlrd. so‘mni tashkil qildi.

Chorva mollari (parrandalar)		Mlrd so‘m
	2 yoshdan katta bo‘lgan qoramollar	654,9
	1 yoshdan 2 yoshgacha bo‘lgan yosh mollar	273,2
	1 yoshgacaha bo‘lgan yosh mollar	176,1
	Qo‘ylar	174,3
	Otlar	10,4
	Echkilar	4,1
	Kurka, o‘rdak, g‘oz	5,8
	Tovuqlar	2,4
	Quyonlar	0,5
	Qushlar	0,3

UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI

2023-yil 1-oktabr holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarini soni 1 168 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 1 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 1 167 tani tashkil qildi.


	Jami mlrd. so'm	2022-yil yanvar- sentabr oylariga nisbatan, foizda
Andijon viloyati	266,1	109,7
Andijon shahar	118,5	111,9
Xonobod shahar	3,2	108,7
<i>tumanlar :</i>		
Oltinko'l	13,0	108,3
Andijon	20,9	108,0
Baliqchi	5,2	108,0
Bo'ston	6,3	107,5
Buloqboshi	2,2	106,6
Jalaquduq	5,4	108,0
Izboskan	7,4	107,4
Ulug'nor	2,9	108,1
Qo'rg'ontepa	11,6	102,5
Asaka	11,6	108,2
Marhamat	8,1	107,8
Shahrixon	34,2	108,9
Paxtaobod	9,1	110,3
Xo'jaobod	6,4	109,7

2023-yilning yanvar-sentabr oylarida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 266,1 mlrd. so'mga yetdi. 2022-yilning mos davriga nisbatan 9,7 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 92,9 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.

AVTOTRANSPORT VOSITALARI VA ULARNING EHTIYOT QISMLARI ULGURJI VA CHAKANA SAVDO AYLANMASI

2023-yil 1-oktabr holatiga avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*motorli transport vositalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatishdan tashqari*) 2 790,0 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 114,0 % ga ortdi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi 1 229,0 mlrd. so'm (o'sish sur'ati – 138,6 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyetklari savdo hajmi – 1 561,0 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati – 145,0 %) tashkil qildi.

**Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari
ulgurji va chakana savdo aylanmasi
os'ish sur'ati, foizda**



**AVTOTRANSPORT VOSITALARI VA ULARNING EHTIYOT QISMLARI
ULGURJI VA CHAKANA SAVDO AYLANMASI**



Hududlar kesimida ma'lumot


	Hajm, <i>mlrd. so'm</i>	2022-yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan, foizda
Andijon viloyati	2 790,0	114,0
Andijon shahar	1 932,6	116,8
Xonobod shahar	0,3	106,2
<i>tumanlar :</i>		
Oltinko'1	110,2	103,1
Andijon	101,2	103,1
Baliqchi	3,0	104,1
Bo'ston	0,3	104,4
Buloqboshi	0,6	104,6
Jalaquduq	2,9	103,7
Izboskan	1,3	104,7
Ulug'nor	0,2	105,6
Qo'rg'ontepa	32,5	103,2
Asaka	319,6	135,1
Marhamat	10,6	103,2
Shahrixon	10,1	103,8
Paxtaobod	2,2	104,0
Xo'jaobod	262,5	91,6

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Andijon shahri (1 932,6 mlrd. so'm), Asaka (319,6 mlrd. so'm) va Xo'jaobod (262,5 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.


ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

Viloyat bo'yicha 2023-yilning yanvar-sentabr oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 4 543,2 mlrd. so'mni tashkil etib, 2022-yilning mos davriga nisbatan 7,4 % ga o'sdi.

Hududlar bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'm



2023-yil 1-oktabr holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 2 839 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 25 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 2 814 tani tashkil qildi.



Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda 4 207,4 mlrd. so'mni tashkil qilib, 2022-yilning mos davriga nisbatan 7,6 % ga to'g'ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi 92,6 % ni tashkil qildi.

**ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES
SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

	Jami <i>mlrd. so'm</i>	2022-yil yanvar- sentabr oylariga nisbatan, foizda
Andijon viloyati	4 543,2	107,4
Andijon shahar	1 650,7	104,8
Xonobod shahar	21,6	106,6
<i>tumanlar :</i>		
Oltinko'l	250,4	121,5
Andijon	429,2	114,4
Baliqchi	303,0	104,7
Bo'ston	114,4	106,3
Buloqboshi	99,3	106,2
Jalaquduq	52,1	118,2
Izboskan	86,7	105,7
Ulug'nor	48,9	106,4
Qo'rg'ontepa	112,4	105,0
Asaka	142,1	106,5
Marhamat	76,9	113,1
Shahrixon	1 014,3	105,2
Paxtaobod	81,0	107,0
Xo'jaobod	60,1	147,6

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega eng yirik korxonalar, Oltinko'l, Jalaquduq va Marhamat tumanlarida kuzatildi.

STATISTIK KO'RSATKICHLARGA IZOHLAR

Chakana savdo – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga sotishni nazarda tutuvchi faoliyat, ya'ni tovarlarni foydalanish sohasidan shaxsiy yoki umumiy iste'mol sohasiga o'tgan vaqtdagi harakatining yakuniy bosqichini ifodalaydi.

Chakana tovar aylanmasi – tovarlarni sotish tarmoqlaridan qat'i nazar, aholiga iste'mol tovarlarini naqd hisob-kitob asosida yoki plastik kartochokalari, kredit kartochokalari, banklarning hisob cheklari orqali (bu ham naqd hisob-kitob asosida sotish kabi hisobga olinadi) sotilgan qiymati.

Umumiy ovqatlanish – yuridik shaxslar tomonidan pazandachilik mahsulotlarini tayyorlashga, sotishga va iste'molini tashkil qilishga ixtisoslashtirilgan faoliyatni amalga oshirish.

Umumovqatlanish aylanmasi – joylarida aholiga iste'mol uchun, shuningdek, turli kontingentdagi aholini ovqatlanishini tashkil qilish uchun tashkilot va yakka tadbirkorlarga o'zi ishlab chiqargan kulinariya mahsulotlarini (taom, kulinariya mahsulotlari va yarimfabrikatlar), shuningdek, kulinariya ishlovisiz sotib olingan tovarlarni (unli, qandolatli va non mahsulotlari) sotishdan tushgan tushumni ifodalaydi.

Tovar zaxiralari – chakana savdo korxonalarini balansida turgan va kelgusida sotish uchun mo'ljallangan tovarlar qoldig'i.

Tovar aylanmasining tovar tuzilmasi – umumiy savdoda nisbiy ko'rsatkich – jamiga nisbatan foiz hisobidagi solishtirma og'irlik (ulush) yordamida aks etadigan, umumiy tovar aylanmasi hajmidagi alohida tovar va tovar guruhlari o'rtasidagi nisbat, ya'ni tovar aylanmasi tarkibi.

Ulgurji savdo – tijorat maqsadlarida yoki o'zining ishlab chiqarish-xo'jalik ehtiyojlariga foydalanish uchun, xarid qilingan tovarlarni naqd pulsiz hisob-kitoblar shakli bo'yicha sotish.

Iste'mol tovarlari – yakuniy iste'molga (oilaviy yoki shaxsiy) qaratilgan, bevosita inson ehtiyojini qondiradigan tovarlar va xizmatlar.

Texnik-ishlab chiqarishga mo'ljallangan mahsulotlar – ishlab chiqarish iste'moli uchun mo'ljallangan mahsulot: xomashyo, materiallar, yoqilg'i, butlovchi instrumentlar, mashinalar, ehtiyot qismlar, yarimfabrikatlar va boshqalarni o'z ichiga oladi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasi – tuzilgan shartnomalar bo'yicha tijorat maqsadlarida (kelajakda qayta ishlash yoki sotish) yoki o'zining ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun naqd pulsiz hisob-kitob shaklida tovarlar sotishdan tushumni ifodalaydi.